

EKSPERTIZA O'TKAZISH BO'YICHA
616/2021 -sonli shartnoma

Namangan shahar

27 avgust 2021 yil

"Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi" davlat unitar korxonasi Namangan viloyati filiali (keyingi o'rinlarda "**Bajaruvchi**" deb yuritiladi) nomidan 2021 yil 4 yanvardagi 06-2021 - sonli ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi direktor A.Isakdjanov bir tomondan va **Namangansuvkurilishinvest DUK** (keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi **direktori A.G'aniyev** ikkinchi tomondan, quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzishdi:

I. SHARTNOMANING PREDMETI

1.1. Mazkur shartnomaga muvofiq Buyurtmachining topshirig'i bilan bajaruvchi "**Shimoliy Fargona Magistral kanalining PK426+74 dan PK440+45 gacha bulgan kismini obodonlashtirish**" loyiha-smeta xujjatlarini ekspertizadan o'tkazishni, Buyurtmachi esa ushbu ishlar uchun haq to'lash majburiyatlarini oladilar.

1.2. Ekspertizadan o'tkazish muddati: Buyurtmachi tomonidan bajaruvchining hisob raqamiga mazkur shartnomaning 2.2. bandiga muvofiq oldindan to'lov tartibida pul mablag'i o'tkazilganidan so'ng 30 ish kuni mobaynida. Ushbu davrda bajaruvchi yig'ma ijobiy yoki bajaruvchi tomonidan ko'rsatilgan kamchiliklar bartaraf e'tilmagan taqdirda salbiy ekspert xulosa beradi.

1.3. Ekspertizadan o'tkazishga asos: Buyurtmachining 25 avgust 2021 yildagi 18544-sonli murojaati.

1.4. Ekspertizadan o'tkazish ishlarining yakuniy natijasi: yig'ma ekspert xulosa.

1.5. Bajaruvchi mustaqil ravishda hamda uchinchi shahslarni jalb etish bilan Buyurtmachi manfaatlarini ko'zlab ishlarni bajaradi.

II. XIZMAT XAQI VA HISOB-KITOB QILISH TARTIBI

2.1. Shartnomaviy kelishuv narxi to'grisidagi bayonnomaga (1-ilova) muvofiq, ekspertizadan o'tkazish ishlarining qiymati: **6 062 798 (olti million oltmish ikki ming etti yuz to'qson sakkiz)** so'm QQS bilan tashkil etadi.

2.2. Buyurtmachi tomonidan Bajaruvchiga shartnoma imzolanganidan so'ng 10 (o'n) bank kuni davomida oldindan to'lov tartibida shartnomaviy umumiy qiymatining 30 foiz miqdorini to'lanadi, qolgan 70 foiz miqdori bajarilgan ishlar hisob-fakturasi imzolanganidan so'ng 5 (besh) bank kuni ichida to'lanadi.

2.3. Buyurtmachi tomonidan hisob-faktura imzolanmasa va / yoki ushbu xujjatlar qaytarib berilmagan taqdirda, agar ushbu xujjatlarni taqdim etilgan paytdan etiboran 10 kalendar kun ichida imzolashga asosli rad etilmasa, hisob-faktura qabul qilingan hamda xizmatlar ko'rsatilgan deb hisoblanadi.

2.4. Ekspertizadan o'tkazish ishlari bajarilib va to'liq hisob-kitob qilinganidan so'ng, bajaruvchi aybdor bo'lmagan xolda, mazkur shartnoma predmeti takroran ekspertizaga taqdim etilsa, takroriy ekspertizadan o'tkazish uchun xaq to'lash yangi shartnoma tuzish orqali amalga oshiriladi.

2.5. Buyurtmachining yozma ravishda murojaati asosida ekspertiza o'tkazish ishlari to'xtatib qo'yilgan taqdirda, Buyurtmachi bajaruvchiga uning xarajatlarini to'lashi shart.

III. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

3.1. Bajaruvchi mazkur shartnomaga muvofiq o'rnatilgan tartibda ekspertizadan o'tkazish majburiyatini oladi.

3.2. Buyurtmachi mazkur shartnoma yuzasidan quyidagi majburiyatlarni oladi:

a) ekspertizani o'tkazishi uchun Bajaruvchi tomonidan so'ralgan tegishli hujjatlarini to'liq taqdim etish;

b) ekspertiza ishlarining xizmat xaqini o'z vaqtida mazkur shartnomaga muvofiq hisob-kitob qilish;

v) ekspertiza xulosa bilan birgalikda ekspertiza uchun taqdim etilgan hujjatlarini olib ketish.

Xujjatlar olib ketilmagan taqdirda Bajaruvchi ularni but saqlanishiga javob bermaydi.

IV. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

4.1. Buyurtmachi tomonidan shartnomaga ko'ra Bajaruvchiga belgilangan muddatda xizmat xaqi to'lanmasa, kechiktirilgan xar bir kun uchun Bajaruvchiga 0,4 foiz miqdorda penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi xizmat haqi to'lanmagan bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

4.2. Bajaruvchi tomonidan shartnomaga ko'ra, Buyurtmachiga ekspertiza ishlarni bajarish muddatlarini kechiktirib yuborilgan holda, kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

4.3. Tomonlarning mazkur shartnomada ko'zda tutilmagan javobgarlik choralari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq qo'llaniladi.

4.4. Mazkur shartnomani tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish vaqtida yuzaga keladigan nizolar va kelishmovchiliklar tomonlar o'rtasida imkon qadar muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.

4.5. Nizolarni taraflarning muzokoralari yo'li bilan hal etish imkoni bo'lmagan taqdirda, tomonlar kelishmovchiliklarni bartaraf qilish borasida qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan sudgacha bo'lgan jarayonlarni amalga oshirilganlaridan so'ng ularni Namangan shahar iqtisodiy sudiga ko'rib chiqishga topshiradilar.

V. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH YOKI BEKOR QILISH TARTIBI

5.1. Ushbu shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma ravishda rasmiylashtirilgan va taraflarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan taqdirda xaqiqiy hisoblanadi.

5.2 Shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga taraflarning kelishuviga muvofiq yoki O'zbekiston Respublikasini amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra, etkazilgan zarar qoplangan holda yo'l qo'yiladi.

5.3. Buyurtmachi xizmatlarning belgilangan bahosini to'liq to'lash sharti bilan ushbu shartnomani bekor qilishni talab qilishga hakli, shartnoma bajaruvchining aybli xarakterlari tufayli bekor qilingan hollar bundan mustasno.

5.4. Bajaruvchi ushbu shartnoma bekor qilinishi tufayli Buyurtmachiga etkazilgan zararining hammasini to'lash sharti bilan ushbu shartnomani bekor qilishni talab qilishga hakli, shartnoma Buyurtmachining aybi bilan bekor qilingan hollar bundan mustasno.

5.5. Shartnomani bekor qilish haqida qarorga kelgan taraf ikkinchi tarafga 3 kun oldin yozma bildirishnoma yuborishi shart.

VI. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

6.1. Shartnoma tomonlar imzolagach, Gaznachilik ruyxatidan utgan kundan boshlab kuchga kiradi. Shartnomani imzolash sanasi muqaddimada ko'rsatiladi.


6.2. Shartnoma 2021 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

6.2. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzildi. Ikkala nusxa aynan bir hil va teng yuridik kuchga ega.

Tomonlarning manzillari va rekvizitlari:

Bajaruvchi:

"Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi" DUK
Namangan viloyati filiali
Manzil: Namangan sh. A.Temur - 105
X/R: 2020 8000 1008 8257 3005
STIR: 305 550 214
Bank: ATB Turon bank Namangan filiali
MFO: 00226 OKED: 71110
Telefon: 69 233-02-50

Direktor  A. Isakdjanov



Buyurtmachi:

Namangansuvkurilishinvest DUK
Namangan sh., Ibrat kucha, 33-uy
SHXR: 400121860144017048805170005
STIR 200 056 161
OKONX 00226 OKED 69000
Uzbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi Gaznachiligi
Gazna x/v 2340 2000 3001 0000 1010
Bank. ATB Turonbank Namangan filiali
Telefon: 69-227-06-44

Direktor  A.G'aniyev



SHARTNOMAVIY NARXNI KELISHISH BAYONNOMASI

Bajaruvchining vakili - "Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi" davlat unitar korxonasi Namangan viloyati filiali nomidan 2021 yil 4 yanvardagi 06-2021 - sonli ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi direktor A.Isakdjanov va Buyurtmachining vakili - Namangansuvkurilishinvest DUK nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi direktori A.G'aniyev quyidagilar to'g'risida mazkur bayonnomani tuzishdi.

"Shimoliy Fargona Magistral kanalining PK426+74 dan PK440+45 gacha bulgan kismini obodonlashtirish" ob'ektining loyiha-smeta hujjatlarini ekspertizadan o'tkazishning shartnomaviy narxlari Vazirlar Maxkamasining 2013 yil 30 maydagi 150-sonli va 2016 yil 22 yanvardagi 15-sonli qarorlariga muvofiq hamda ob'ektning murakkablik toifasini inobatga olgan holda belgilandi.

(3-kategoriya)

Shartnoma qiymatining xisob-kitobi:

$$325\,432\,000 \times 1,62\% \times 1,15 = 6\,062\,798 \text{ so'm}$$

Jami – 6 062 798 (Olti million oltmish ikki ming etti yuz to'qson sakkiz) so'm QQS bilan, tashkil etadi.

Direktor  A. Isakdjanov

m.o



Direktor  A.G'aniyev



